



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOTSIOLINGVISTIKANING O'RGANILISHI

Gulnoza Haydarova Ahmad qizi

*Kattaqo'rg'on davlat pedagogika institute Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida sotsiolingvistikaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ushbu sohaning o'rganilish darajasi tahlil qilinadi. O'zbekistonda kimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilganligi o'rganiladi. Unda til va jamiyat o'rtasidagi uzviy munosabat, ijtimoiy omillarning til taraqqiyotiga ta'siri yoritiladi. Maqolada til siyosati hamda nutq madaniyati masalalarining sotsiolingvistik jihatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilining ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Sotsiolingvistika, tilshunoslik, sotsiologiya, jamiyat, lingvistika, til siyosati, til hodisalari, til va tafakkur, rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the formation of sociolinguistics in Uzbek linguistics, its stages of development, and the extent to which this field has been studied. It also examines the scholars in Uzbekistan who have conducted research in this area. The article highlights the close relationship between language and society and explains the influence of social factors on language development. Furthermore, it reveals the sociolinguistic aspects of language policy and speech culture. The findings of the study contribute to a deeper understanding of the role and significance of the Uzbek language in the process of social development.

Keywords: Sociolinguistics, linguistics, sociology, society, linguistics, language policy, language phenomena, language and thought, development.

Аннотация: В данной статье анализируется становление социолингвистики в узбекском языкознании, этапы развития и уровень изученности этой области. Кто проводил исследования в Узбекистане? В ней подчеркивается целостная связь языка и общества, влияние социальных факторов на развитие языка. В статье раскрываются социолингвистические аспекты вопросов языковой политики и речевой культуры. Результаты исследования служат лучшему пониманию роли и значения узбекского языка в процессе общественного развития.

Ключевые слова: Социолингвистика, лингвистика, социология, общество, лингвистика, языковая политика, языковые явления, язык и мышление, развитие.

Ma'lumki hech bir til kishilik jamiyatidan ayro holda paydo bo'lmagan va shu bilan birga ayro tarzda mavjud bo'la olmaydi ham. Til va jamiyat har doim uzviy aloqadorlikda rivojlanadi. Shu bois ham XX asrda tilni jamiyat va uning a'zolari bo'lgan til egalari bilan birgalikda o'rganish boshlandi. Natijada 1963-yildan boshlab yangi bir tadqiqot yo'nalishlari shakllana boshladi. Bu termin sifatida ilk bor AQShda 1952-yilda (G.Karri



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tomonidan) fanga kiritilgan “Sotsiolingvistika” fani edi. “Sotsiolingvistika (lot societas — jamiyat va lingvistika) — tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, tilga ta’sir ko’rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o’rni bilan bog’liq ko’plab muammolar majmuini o’rganuvchi ilmiy nazariy soha hisoblanadi”. Bugungi kunga qadar dunyo tilshunosligida bu sohaga doir minglab tadqiqotlar olib borilgan.

Sotsiolingvistika jamiyatdagi ijtimoiy sharoitlarda til faoliyat olib boradigan va rivojlanadigan jabhalarni o’rganadi. Ijtimoiy sharoitlarga jamiyatdagi odamlarning ijtimoiy kelib chiqishi, tuzilishi, yoshi, ijtimoiy mavqe, madaniyat va ta’limni bilish darajasi, yashash joyi va so’zlayotgan nutqi misol bo’la oladi. Xususan, ushbu fan tadqiqotchisi so’zlovchilar o’z nutqida u yoki bu variantni qanchalik ko’p ishlatishini va bu qanday ijtimoiy parametrlarga (ijtimoiy sinf, ma’lumot, jins, yosh, aloqa holati) bog’liqligini aniqlashi kerak. Ijtimoiy tilshunoslik, bizning fikrimizcha, til va uning ijtimoiy hamda madaniy kontekstlaridagi munosabatlarida vujudga keladigan masalalarni o’rganadigan fandir. Buning uchun u ma’lum bir jamiyat a’zolarining turli xil kodlar va iboralar almashinuvini hamda og’zaki nutqda qanday suhbatlashishlarini analiz qilib, ushbu real vaziyatlarni o’rganadi. Sotsiolingvistika, ya’ni ijtimoiy tilshunoslikning boshqa fanlardan farqli jihatlari va o’ziga xos xususiyatlarini anglash uchun ushbu fanning kelib chiqishi, obykti, predmeti va olimlarning bu fan to’g’risidagi turli xil qarashlarini ko’rib chiqishimiz kerak.

“Sotsiolingvistika” atamasini birinchi marta 1952 yilda amerikalik jamiyatshunos German Karri qo’llagan. Biroq, bu tilning ijtimoiy tabiati haqidagi fan 1950-yillarning boshlarida paydo bo’lgan degani emas. Sotsiolingvistikaning tarixi yana ham uzoqqa borib taqaladi. XX asrning birinchi yarmidagi taniqli rus olimlari I. A. Boduen de Kurtene, E. D. Polivanov, L. P. Yakubinskiy, V. M. Jirmunskiy, B. A. Larin, A. M. Selischev, G. O. Vinokur, fransuz olimlari F. Bruno, A. Meye, P. Lafarg, M. Koen, shveytsariyalik olimlar Sh. Balli va A. Seshe, belgiyalik J. Vandries, chexoslovak B. Gavranek, A. Matesius va boshqalarga hozirgi sotsiolingvistika borasida bir qator g’oyalar tegishli.

Har qanday jamiyat hayoti va taraqqiyotida tilning o’rni katta ahamiyatga ega ekanligi, har qanday jamiyatning ilmiy asoslangan til siyosatiga ehtiyoji barchaga ma’lum. Shu bilan bir qatorda tilning yashashi va rivojlanishi shu jamiyat bilan uzviy bog’liq. Chunki til o’zining muloqot, bilish, ifoda vazifalarini bajarishi uchun uning o’z hududi, bu hududda yashovchi jamiyat, jamiyatning iqtisodiy bazasi bo’lishi kerak, zero, bu hudud, sodir bo’layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar, ma’naviy-mafkuraviy siljishlar tilga o’z ta’sirini o’tkazmay qolmaydi. Bundan tashqari fan-texnika taraqqiyoti, globallashuv jarayoni ham tilga ta’sir qiladi. Sotsiolingvistikaning ustuvor vazifalaridan biri sifatida yuqorida ko’rsatilgan omillar bunga yaqqol misol bo’la oladi. O’zbek tilshunosligida dastlab tilning ijtimoiy tabiati, jamiyatning tilga ta’siri masalasiga o’tgan asrning 80-yillarida “Tilshunoslikka kirish” qo’llanmasida alohida to’xtalgan bo’lsa ham, aslida til va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



jamiyat muammolari avvalroq tilga olina boshlagan. Fitrat, Elbek, Botu singari jadidlarning asarlarida oz bo'lsa ham shunga oid qaydlar uchrab turadi. Tilshunos Zaynabidin Abdurashidov esa jadid bobokalonlarimiz ijodi va faoliyatini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilar ekan Behbudiyni o'ziga xos tajriba va so'rovnomalar o'tkazgan sotsiolog sifatida ham kashf etamiz deydi. O'tkazilgan tajriba xulosalari esa uning "Til masalasi" nomli maqolasining ikkinchi qismida bayon etilganligi ta'kidlanadi. Tilshunos olimlarimiz Miraziz Mirtojdiyev va Nizomiddin Mahmudovning "Til va madaniyat" risolasida ham tilning ijtimoiyligi, davlat tili va til siyosati haqida so'z ketgan o'rinlar mavjud. Mutaxassislar esa S.Mo'minovning "O'zbek muloqot nutqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasini sotsiolingvistika bo'yicha qilingan ilk ish sifatida qayd etadi. So'nggi yillarda bu boradagi tadqiqotlar ko'lami yanada kengaymoqda. Jumladan, amaliy tilshunoslikning muhim masalalari sifatida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida tilshunos Rafiqjon Zaripov va bir qator shogirdlari faoliyatida til siyosati va menejmenti mavzusida turli konferensiya va jurnallarda ko'plab maqola va tezislar e'lon qilinmoqda. Tilshunosning o'zi ham 2021-yilda "Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Muammoning o'ganilganlik darajasini tahlil qilar ekan: "O'zbek tilshunosligida til siyosati, bilingvizm, pluralingvizm masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarni M.Mirtojdiyev, B.To'yichiboyev, E.Xudoyberdiyev, A.Nurmonov, E.Begmatov, H.Ne'matov, N.Mahmudov, M.Irisqulov, I.Qo'chqortoyev, G'.Raximov, B.Karimov, Q.Xonazarov, S.Shermuxamedov, B.Karimov, K.Mira'zamov, J.Tulenov, B.Siddiqov, Z.G'ofurov, A.Abdunabiyev, E.Yusupov, J.Mamashukurov, M.Zokirov, Sh.Usmonova, Z.Ochilova singari tilshunos va faylasuflarimizning ishlarida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, g'arb tilshunos olimlari B.Shlayter, U.Fierman, X.Shiffman, I.Baldauflarning monografiya va maqolalarida O'zbekistondagi til siyosati, o'zbek tilining mustaqillik davridagi rivojlanishi milliy taraqqiyot va millatlararo munosabatlar kontekstida yoritilgan", - deydi tilshunos dissertatsiya avtoreferatida.

Sotsiolingvistika fanining barcha taraqqiyot bosqichlari ushbu fanning obyektini insonning jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalarni bevosita kuzatishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu kuzatishlar o'z ko'lamiga ko'ra juda keng bo'lib, ijtimoiy hayotda kechayotgan hech bir jarayon inson nazaridan chetda qolmaydi hamda inson bilan bog'liq jarayonda vujudga keladi. Binobarin har bir sohada insonning lisoniy shaxs darajasiga yetkazuvchi vosita tilning o'ziga xos vazifaviy ko'rinishi bevosita jamiyatda namoyon bo'ladi. Ushbu o'ziga xoslik aynan o'zaro aloqada, axborot almashish jarayonida o'z ifodasini topadi. Sotsiolingvistika til va tafakkurda, axborot almashinish jarayonida tilning vazifaviy ko'rinishlari kabi masalalari bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, sotsiolingvistika faqat til hodisalarining tabiatini anglash bilan chegaralanib qolmasdan, u jamiyatimizdagi madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy-siyosiy masalalarni hal etish bilan ham uzviy



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ravishda bog‘liq. Shunday ekan, sotsiolingvistikaning rivoji va taraqqiyoti ham barcha jabhalarga bog‘liq holda rivojlanib boradi.

Tilshunoslikda o‘rganilayotgan davrda sotsiolingvistika yo‘nalishi bir necha xil nomlarga ega edi: til sotsiologiyasi, sotsiologik lingvistika, sotsiologik tilshunoslik, lingvistik sotsiologiya, lingvososiologiya, sotsiolingvistika, ijtimoiy lingvistika. Bundan kelib chiqadigan asosiy tushuncha quyidagicha: sotsiolingvistika fanining obyektini – til, predmeti esa tilning vazifalari va nutq omillarini aniqlash hisoblanadi. Ijtimoiy tilshunoslik o‘zining obyektini o‘rganishda bir qator mezonlarga amal qiladi: tarixiylik, hayotiylik, me‘yoriylik, hududiylik kabi. Shuni ta’kidlash joizki, sotsiolingvistika fanlararo ilm kesimida tilning ijtimoiy psixologiyasi, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika va tanqidiy tilshunoslik fanlari bilan uzviy bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunosligida sotsiolingvistika tili jamiyat bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladigan muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, bugungi kunda mustaqil tadqiqot sohasi darajasiga yetdi. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar tilning ijtimoiy tabiatini, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va funksiyalarini aniqlashga xizmat qilmoqda. Tadqiqot jarayonida til siyosati, ikki tillilik, til variatsiyasi, ijtimoiy guruhlar nutqi hamda nutq madaniyati kabi masalalarning sotsiolingvistik jihatdan o‘rganilishi o‘zbek tilining rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq anglash imkonini berdi. Shu bilan birga, sotsiolingvistika til hodisalarini jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatdi. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada kengaytirish, zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan uyg‘un holda o‘zbek tilining rivojlanish istiqbollarini belgilash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshqonov, U. (2020). Sotsiolingvistik tadqiqotlar va ularning tili. Tashkent: Fan va texnologiya.
2. Zaripov R. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: f.f.f.d. ...diss. Avtoref. – Andijon, 2021.
3. D. Sultonova. Sotsiolingvistikaning tilshunoslikdagi o‘rni va fan sifatida olimlar tomonidan o‘rganilishi. Innovative academy.
4. Xolmanova. Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 2007.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika>